

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SI – TURKIY ADABIYOTNING ENG YUQSORI
CHO‘QQISI

Olimova Ruxshona Ravshan qizi

Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15554273>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari tahlil qilinadi. Muallifning Nizomiy va Dehlaviy an‘analarini davom ettirib, turkiy til imkoniyatlarini kengaytirgani yoritiladi. Har bir dostonning g‘oyaviy-badiiy mazmuni, syujeti, obrazlar tizimi, poetik yondashuvi, falsafiy va axloqiy g‘oyalari ilmiy asosda tahlil etiladi. Xamsa janrining turkiy adabiyotdagi o‘rni va Navoiyning bu boradagi yangiliklari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Xamsa, Alisher Navoiy, doston, turkiy adabiyot, g‘oyaviy mazmun, obraz, syujet, Nizomiy, Dehlaviy, poetika.

Abstract. This article explores the significance of Alisher Navoi’s “Khamsa” in the context of Turkic classical literature. It highlights how Navoi continued the tradition of Nizami Ganjavi and Amir Khusraw Dehlavi, adapting the khamsa genre to the Turkic language and enriching it with national elements. Each of the five epics *Hayrat ul-abror*, *Farhod va Shirin*, *Layli va Majnun*, *Sab’ai Sayyor*, and *Saddi Iskandariy* – is analyzed in terms of plot, imagery, poetic style, and philosophical content. The article emphasizes the cultural, literary, and linguistic value of Navoi’s “Khamsa” as a major milestone in the development of Turkic literature.

Keywords. Khamsa, Alisher Navoi, epic poetry, Turkic literature, classical literature, Nizami, Amir Khusraw, poetic tradition, spiritual philosophy, literary heritage.

Kirish

Alisher Navoiy turkiy adabiyotda badiiy tafakkurning eng yuksak namoyandalaridan biri sifatida, nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunga qadar adabiyotshunoslikda muhim o‘ringa ega ijodkordir. Uning ko‘p qirrali adabiy merosi ichida besh dostonidan iborat “Xamsa” alohida ajralib turadi. Bu asarlar turkiy she‘riyatda ilk bor Xamsa janrida yaratilgan dostonlar bo‘lib, Sharq adabiyotidagi Xamsa an‘analarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Navoiydan avvalgi Xamsa an‘anasi. Xamsachilik an‘anasi Sharq adabiyotida ilk bor Nizomiy Ganjaviy tomonidan boshlangan bo‘lib, u o‘zining mashhur besh dostoni: “*Maxzan ul-asror*”, “*Xusrav va Shirin*”, “*Layli va Majnun*”, “*Haft paykar*” va “*Iskandarnoma*”ni yaratdi. Keyinchalik Amir Xusrav Dehlaviy ham o‘z Xamsasini yozib, janrni yanada rivojlantirdi. Shu tariqa, Xamsa yozish Sharq adabiyotida yuqori darajadagi ijodiy mahoratni ifodalovchi me‘zon sifatida qaraldi.

Navoiy bu an‘anani o‘zbek she‘riyatiga olib kirdi va turkiy tilda ilk Xamsani yaratgan shoir sifatida tarixda qoldi. Bu uning nafaqat badiiy, balki madaniy va til taraqqiyotidagi ulkan xizmatidir. Alisher Navoiyning Xamsasi quyidagi besh dostonidan iborat:

1. Hayrat ul-abror. Bu doston axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, 64 bobdan iborat. Unda ezgulik, adolat, ilmu hunar, halollik kabi insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi. Doston asosan pandnoma janrida yozilgan.

2. Farhod va Shirin. Bu doston muhabbat, fidoyilik, mehnat va halollik mavzularida yaratilgan. Navoiy bu asar orqali Nizomiy va Dehlaviyga chinakam adabiy javob beradi. Farhod obrazi mehnatkash, sadoqatli, el-yurtga g‘amxo‘r yigit sifatida ideal darajada tasvirlanadi.

3. Layli va Majnun. Sevgi yo'lida o'z jonini ham ayamaydigan, jamiyat qoidalarini bilan murosa qilmaydigan Majnun obrazi orqali Navoiy ilohiy ishqni kuylaydi. Bu doston lirik-epik uslubda yozilgan bo'lib, ilohiy ishq falsafasi yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.

4. Sab'ai sayyor. Tarjimasi "Yetti sayyora" bo'lib, u *Haft paykarning* badiiy va g'oyaviy takomillashgan variantidir. Bu doston hukmdor Bahromning yetti go'zal qizdan eshitgan hikoyalari asosida qurilgan bo'lib, unda odil podshohlik, hayotiy donoliklar targ'ib qilinadi.

5. Saddi Iskandariy. Bu doston ikki qismdan iborat: *Iskandariy nomi* va *Sharafnoma*. U orqali Navoiy adolatli hukmdor, donishmand va olim shoh obrazini yaratadi. Iskandar obrazi orqali ilm, ma'rifat, adolat ustuvorligi targ'ib etiladi.

"Xamsa"ning poetik yondashuvi. Navoiy Xamsasi o'zining yuqori poetik mahorati, go'zal tashbeh va istioralari, badiiy tafakkuri bilan ajralib turadi. U har bir doston orqali o'sha zamonning ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy masalalariga chuqur yondashadi. Bunda u:

Yuksak badiiy til va mazmuniy qatlamlarni uyg'unlashtiradi;
 Turkiy tilda she'riyatning barcha imkoniyatlarini ko'rsatadi;
 Milliy timsollar va o'zbek xalq og'zaki ijodiga tayanadi.

"Xamsa"ning axloqiy va falsafiy qarashlari. Navoiyning har bir dostonida tasavvufiy va axloqiy g'oyalar chuqur o'rin olgan. Xususan:

Hayrat ul-abror – axloqiy pand-nasihatlari;
Farhod va Shirin – halollik, mehnat, fidoyilik;
Layli va Majnun – ilohiy muhabbat va ruhiy kamol;
Sab'ai sayyor – donolik va hayotiy saboqlar;
Saddi Iskandariy – ilm-ma'rifat va adolat targ'ibi.

Bu asarlar orqali Navoiy o'z davrining ma'naviy yo'l boshchisiga aylandi.

"Xamsa" ning turkiy adabiyotdagi o'рни. Alisher Navoiy Xamsasi nafaqat badiiy jihatdan, balki til, tafakkur, g'oya va xalqchilik jihatidan ham turkiy adabiyotda tub burilish yasadi. Uning ta'siri:

Keyingi turkiy adiblarning Xamsa yaratish harakatlarida (Mashrab, Bobur, Gulxaniy va boshqalar);

Turkiy adabiyotda doston janrining ommaviylashuvida;
 Ma'naviy-ma'rifiy adabiyot rivojida ko'zga tashlanadi.

Xulosa

Alisher Navoiyning "Xamsa"si Sharq adabiyoti va butun turkiy she'riyat tarixida yuksak cho'qqidir. U o'zining chuqur falsafiy mazmuni, mukammal syujeti, yuksak poetik mahorati va boy badiiy vositalari bilan o'zbek milliy adabiyotining faxridir. Navoiy Xamsasi orqali turkiy tilda ham Nizomiy darajasidagi badiiy yuksaklikka erishish mumkinligini isbotladi va bu bilan Sharq she'riyati tarixida oltin sahifa ochdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. *Xamsa*. To'liq to'plam. – Toshkent: Fan, 1991.
2. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. *Alisher Navoiy hayoti va ijodi*. – Toshkent, 2000.
3. G'aniyeva N. *Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 1984.

4. Qo'chqorov A. *Navoiy dostonchiligi*. – Toshkent, 1975.
5. Abdulhayev B. *Xamsa an'anasi va Navoiy*. – Adabiyotshunoslik jurnali, 2019, №2.



INNOVATIVE
ACADEMY